



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q., Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-179-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni ko'rib chiqish va ulardan foydalaniishi ustidan nazorat o'rnatilganligi bo'yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi rahbarining hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli qonuni bilan 2023-yil 2-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 4 148,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar yo'nalishi quyidagicha.

Jumladan, budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash tadbirlari uchun 1244,0 mln.so'm ya'ni 30 foizi.

Aholini ijtimoiy himoyalashga xarajatlari uchun 1344,4 mln so'm.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi «Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 312-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimligi huzuridagi «Yoshlar daftari» jamg'armasiga 622,2 mln.so'm ya'ni 15 foizi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi "Xotinqizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 145-sun qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimligi huzuridagi "Ayollar daftari" jamg'armasiga 622,2 mln.so'm ya'ni 15 foizi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-aprel kunidagi №213-f sonli farmoyishiga asosan "Mahalla" xayriya jamoat fondi Angor tuman bo'linmasi "Saxovat va ko'mak jamg'armasi"ga mablag'larni shakllantirish uchun 100,0 mln.so'm ya'ni 2.5 foizi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari uchun 522,4 mln so'm.

Jumladan, "Obod qishloq" davlat dasturi asosida tumandagi "Tallimaron" mahallasida piyodalar yo'lakchasini qurish xarajatlari uchun 245,0 mln.so'm ya'ni 6

foizi.

Tumandagi "Motamsaro ona" haykali monumentining ko‘rinishini o‘zgartirish maqsadida qurilish materiallari sotib olish xarajatlari uchun 250,0 mln.so‘m ya’ni 6 foizi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi PF-32-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Sharq guli mahallasida qurilayotgan «Yangi O‘zbekiston» massivi hududidan bolalar maydonchasi qurish uchun 27,4 mln.so‘m ya’ni 1 foizi.

Tuman hokimligi va boshqa budjet tashkilotlarini ta’mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 1037,2 mln.so‘m mablag‘lar ajratilgan bo‘lib, ushbu mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qarorida belgilangan talablarni inobatga olib tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari 10 kun muddatga «E-qaror» elektron tizimiga joylashtirgan xolda jamoatchilik fikri inobatga olib, tumani mahalliy budgetining 2023-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi xalq deputatlari tuman Kengashi tarkibi bilan ma’qullab, Kengash qaroriga muvofiq mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasarruf etilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mahalliy budjet ijrosi, shuningdek hudud salohiyatidan kelib chiqqan holda mahalliy budjet daromadlarining qo‘srimcha manbalarini shakllantirish hamda qo‘srimcha manbalardan foydalanish yo‘nalishlari, jumladan, mahalliy budjet daromadlarini oshirish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni ko‘rib chiqish va ulardan foydalanimishi ustidan nazorat o‘rnatish to‘g‘risida tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Kuchkarovning bergen hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rbbosari (O.Muratov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) va xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) larga;

mahalliy budjet daromadlarini oshirishning qo‘srimcha rezervlarini aniqlash choralarini ko‘rish;

2023-yil yakunida ham mahalliy budgetning daromadlar qismi ijrosi ortig‘i bilan bajarish bo‘yicha barcha amaliy choralarini ko‘rish;

oshiqcha daromadlar birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida belgilangan tadbirlarga, Hukumat qarorlari, bayonlari va dasturlardagi tadbirlarga yo‘naltirish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati G.Jumayeva ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilib borilishini ta’minlasin.

4. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har oyda tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari hamda xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova)larga zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov